

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.13/05.05.2023.T.07.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

TURSUNOV ALISHER TULKUNOVICH

**TURLI XILDAGI MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH
MASALALARIDA NOMIQDORIY BELGILARGA RAQAMLI ISHLOV
BERISH USULLARI VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH**

05.01.03- Informatikaning nazariy asoslari

**TEXNIKA FANLAR BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Tursunov Alisher Tulkunovich

Turli xildagi ma'lumotlarni tahlil qilish masalalarida nomiqdoriy belgilarga raqamli
ishlov berish usullari va algoritmlarini ishlab chiqish.....3

Турсунов Алишер Тулкунович

Разработка методов и алгоритмов оцифровки неколичественных признаков в
задачах анализа разнотипных данных.....21

Tursunov Alisher Tulkunovich

Development of methods and algorithms for digitizing non-quantitative features in
problems of analyzing different types of data.....40

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....44

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.13/05.05.2023.T.07.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

TURSUNOV ALISHER TULKUNOVICH

**TURLI XILDAGI MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH
MASALALARIDA NOMIQDORIY BELGILARGA RAQAMLI ISHLOV
BERISH USULLARI VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH**

05.01.03- Informatikaning nazariy asoslari

**TEXNIKA FANLAR BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/T4167 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "TIQXMMI" milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tuit.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nishanov Axram Hasanovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Primova Xolida Anorboyevna
texnika fanlari doktori, dotsent

Dadaxanov Musoxon Xoshimxonovich
texnika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/05.05.2023.T.07.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "22" yanvar soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43, e-mail: ilmiy_kengash@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (316 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel: (99871) 238-64-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "7" yanvar da tarqatildi.
(2025-yil "6" yanvar dagi 6 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.M.Kamilov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor, O'ZR FA akademigi

N.A.Egamberdiyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

N.O.Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va katta hajmdagi ma'lumotlarga ishlov berish, ma'lumotlarni tahlil qilish, kerakli ma'lumotlarni obyektardan ajratib olish, timsollarni tanib olish kabi masalalarni hal qilish zarurati tobora dolzarb bo'lmoqda. AQSh, Xitoy, Yaponiya, Rossiya, Germaniya kabi rivojlangan davlatlarda ushbu yo'nalishlarda ilmiy asoslarni rivojlantirish katta ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotlarning ushbu yo'nalishida turli xildagi ma'lumotlarni tahlil qilishda nomiqdoriy belgilarga raqamli ishlov berish usul va algoritmlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda turli xil ko'rinishda berilgan obyektlarning o'xshashlik darajalarini aniqlashga asoslangan klasterlash algoritmlari ishlab chiqish va ular asosida ma'lumotlarni tahlil qilish tizimini yaratishni taqozo etmoqda. Shu sababdan soha mutaxassislari tomonidan qaror qabul qilish jarayoni juda murakkab jarayonga aylanib bormoqda. Jumladan, katta hajmdagi ma'lumotlarga dastlabki ishlov berish, raqamli bo'lmagan ma'lumotlarga ishlov berishda katta o'lchamdan kichik muhimroq o'lchamga o'tish, tasniflash usullari, belgilarni turlarini o'zgartirish, timsollarni tanib olishda belgilar maydonining o'lchamini kamaytirish usullari, ma'lumotlarni tahlil qilishda informativ belgilar majmuasini tanlash va tanlangan informativ belgilar fazosida sinflashtirish masalasini yechish va zamonaviy tanib olish tizimlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda ham ushbu yo'nalishda ma'lumotlarga dastlabki ishlov berish, tahlil qilish va timsollarni tanib olishga mo'ljallangan apparat-dasturiy majmualarni ishlab chiqish va joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2017- 2021 -yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida, jumladan "... iqtisodiyot, ijtimoiy soha va boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ... axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimlarini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o'z vaqtida va munosib qarshi harakatlarni tashkil etish"¹ vazifalari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevralda "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiya sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-sonli, 2020-yil 5-oktabrda "Raqamli O'zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF- 6079-sonli, 2020-yil 28-aprelda "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4699- sonli, 2022-yil 28-yanvarda "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli, 2023-yil 11- sentabrda "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-dekabrda "Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish hamda ilg'or raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni

PQ– 415–sonli Qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy–huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. So‘nggi yillarda ma’lumotlarni tahlil qilish masalalarida belgilarga raqamli ishlov berish, informativ belgilarni tanlab olish, tasvirlarga dastlabki ishlov berish va timsollarni tanib olish usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish hamda ularni amaliyotga joriy etish masalalari Y.I. Juravlev, M.A.Ayzerman, V.V.Aleksandrov, E.M.Braverman, M.B. Aydarxanov, N.D.Gorskiy, V.I.Vasilev, R.Gonsales, R.Vuds, A.G. Ivaxnenko, E.Patrik, U.Prett, L.Roberts, V.A.Soyfer, G.S.Lbov, Sh.Ulman, P.Xart, M.I.Shlezinger va boshqa xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Respublikamizda timsollarni tanib olish va tasvirlarga dastlabki ishlov berish, ma’lumotlarni tahlil qilish masalalarida belgilarga raqamli ishlov berish hamda informativ belgilar fazosini tanlab olishning nazariy asoslarini rivojlantirishga M.M. Kamilov, Sh.X.Fozilov, F.T.Adilova, N.M.Mirzayev, A.X.Nishanov, B.B.Akbaraliyev, N.S.Mamatov, S.S.Radjabov va boshqalar katta hissa qo‘shib kelmoqdalar.

Hozirgi kunda ma’lumotlarni tahlil qilish tizimlari nazariyasidagi yutuqlarga qaramay, ma’lumotlarga dastlabki ishlov berish, timsollar va belgilarni tanib olish hamda informativ belgilarni tanlab olish usul va algoritmlarini ishlab chiqish va ular asosida ma’lumotlarga ishlov berish dasturiy ta’minotini yaratish yetarli darajada o‘rganilmagan.

Tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy–tadqiqot muassasasining ilmiy–tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad Al–Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining ilmiy–tadqiqot ishlari №BV– V– F4– 011– “Noaniqlik sharoitlarida ma’lumotlarni intellektual tahlilining noravshan–nokorrekt masalalarini yechish usul va algoritmlari” mavzularidagi ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi turli xildagi ma’lumotlarni tahlil qilishda nomiqdoriy belgilarga raqamli ishlov berishning obyektlar o‘xshashliklarini aniqlashga asoslangan usullari va algoritmlarini ishlab chiqish va takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

turli xildagi ma’lumotlarni tahlil qilishda sifatiy belgilardan miqdoriy belgilarga o‘tish, ma’lumotlarga dastlabki ishlov berish va belgilarning turlarini o‘zgartirish usullari hamda tadqiqot masalasini shakllantirish;

belgilarning juftlashgan o‘zaro bog‘liqliklarini tadqiq qilishda empirativ tartib shkalasini aniqlashda foydalaniladigan g almashtirishlar sonining butun son gradatsiya darajalarini optimal almashtirishni topishning hisoblash algoritmlarini ishlab chiqish;

ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida informativ belgilar majmuasini tanlash va tanlangan informativ belgilar fazosida sinflashtirish masalasini yechimini beruvchi usullar va algoritmlarni ishlab chiqish;

turli xil belgilar fazosida berilgan obyektlarning o'xshashlik darajalarini aniqlashga asoslangan klasterlash algoritmlarini ishlab chiqish;

nomiqdoriy belgilarga raqamli ishlov berishda obyektlar o'xshashliklariga asoslangan klasterlash algoritmlarni ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyeksi sifatida ma'lumotlarni tahlil qilishda foydalaniladigan, obyektlarning muhim xususiyatlarini ifodalovchi turli xildagi belgi va atributlar, obyektlar o'xshashliklarini aniqlash va ularni baholashga asoslangan yondashuvlar olingan.

Tadqiqotning predmetini nomiqdoriy belgilarga raqamli ishlov berish, belgilar turlarini almashtirish, timsollarni tanib olish hamda informativ belgilar majmuasini tanlash usul va algoritmlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar jarayonida ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish, belgilarga raqamli ishlov berish, ehtimollar va statistika nazariyasi, diskret matematika va timsollarni tanib olish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

turli xildagi ma'lumotlarni tahlil qilishda sifatiy belgilardan miqdoriy belgilarga o'tish, ma'lumotlarga dastlabki ishlov berish va belgilarning turlarini o'zgartirish usul va algoritmlari obyektlarni empirik munosabatlardan tashkil topgan mantiqiy funksiyalari qiymatlarining o'xshashligi asnosida ishlab chiqilgan;

belgilarning juftlashgan o'zaro bog'liqliklari, belgilar aro korrelyasiya va regressiyani tadqiq etishda empirativ tartib shkalasini aniqlashning g almashtirishlar soni butun son gradatsiya darajalarini optimal almashtirishni hisoblash algoritmi obyekt belgilarning o'zaro bog'liqliklarini tadqiqi asosida ishlab chiqilgan;

ma'lumotlarni tahlil qilishda informativ belgilar majmuasini tanlash va tanlab olingan informativ belgilar fazosida sinflashtirish masalasini yechish usul va algoritmlari Evklid fazoda obyektlararo λ kesishuv nazariyasiga asoslangan holda ishlab chiqilgan;

turli xil belgilar fazosida berilgan obyektlarning o'xshashlik darajalarini aniqlashga asoslangan klasterlash algoritmi sonli belgilar fazosida obyektlarning o'xshashligini mazmunan ifodalovchi mezonga asosan ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan usul va algoritmlar kesimida ma'lum fan soha mutaxassisi, dasturchi bo'lmagan foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan dasturiy majmua ishlab chiqilgan;

"Timsollarni tanib olishda har xil tipda berilgan ma'lumotlarni klasterlash" nomli dasturiy majmua ishlab chiqilgan;

"Har xil tipda berilgan ma'lumotlarni sinflashtirishda sun'iy neyron modeliga asoslangan hal qiluvchi qoida" hamda "Har xil tipli ma'lumotlar fazosida informativ belgilar majmuasini tanlash" nomli dasturiy majmualar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalarning ishonchliligi va asosliligi nomiqdoriy belgilarga raqamli ishlov berish usullari va algoritmlarini

to'g'ri qo'llash, xulosalar va ma'lumotlarning tajribaviy tadqiqotlar natijalariga muvofiqligi, shuningdek amaliy masalalarni yechilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan algoritmlar ma'lumotlarni tahlil qilish asosida nomiqdoriy belgilarga raqamli ishlov berish texnologiyalarining nazariy asoslarini yanada rivojlantirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan algoritmlar va usullar hamda ular asosida yaratilgan dasturiy majmua raqamli bo'lmagan ma'lumotlarni tahlil qilish masalalarini yechishda soha mutaxassislari yakuniy qaror qabul qilishlarida ko'mak beruvchi zamonaviy tanib olish tizimi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Ma'lumotlarni tahlil qilishda informativ belgilarni tanlab olish, nomiqdoriy belgilarga raqamli ishlovlar berish, ko'p o'zgaruvchilik chiziqli regressiya tahlili masalalarini yechishda belgilar turlarini o'zgartirish algoritmlari va dasturiy majmualari bo'yicha olingan natijalar asosida:

turli xildagi farmasevtik ma'lumotlarni tahlil qilish, timsollarni tanib olish masalalari uchun berilgan belgilar fazosi o'lchamini qisqartirish usullari va algoritmlar asosida ishlab chiqilgan "Timsollarni tanib olishda har xil tipda berilgan ma'lumotlarni klasterlash" nomli dasturiy majmua "Enrich" XK farmasevtik korxonasida amaliyotda joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi muvofiqlashtiruvchi Ekspertlar Kengashining 2024-yil 26-apreldagi 01/01- 836- sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida nomiqdoriy belgilarga raqamli ishlov berish hamda belgilar turlarini o'zgartirish usullari orqali miqdoriy belgilarga almashtirish asosida tajriba ma'lumotlarni tahlil qilish tizimining yagona integrallashgan tizimi yaratildi. Natijada ish samaradorligini o'rtacha 10-12% ga oshirishga imkon bergan;

ma'lumotlarni (dori vositalari) tahlil qilishda informativ belgilarni tanlab olish, sinflashtirish hamda belgilar maydoni o'lchamini qisqartirish usullari va algoritmlari asosida ishlab chiqilgan "Har xil tipda berilgan ma'lumotlarni sinflashtirishda sun'iy neyron modeliga asoslangan hal qiluvchi qoida" hamda "Har xil tipli ma'lumotlar fazosida informativ belgilar majmuasini tanlash" nomli dasturiy majmualar "Innovatsion farmasevtik birikmalar ilmiy laboratoriyasi"da amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi muvofiqlashtiruvchi Ekspertlar Kengashining 2024-yil 26-apreldagi 01/01- 836- sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida timsollarni tanib olishda belgilar maydonining o'lchamini kamaytirish, informativ belgilarni tanlab olish hamda belgilar turlarini almashtirish usullari va algoritmlari, shuningdek ma'lumotlarni tahlil qilishning klassik usullari asosida tajriba ma'lumotlarni tahlil qilish tizimi yaratildi. Natijada ish unumdorligini o'rtacha 10-15% ga oshirishga imkon bergan;

turli xilda berilgan ma'lumotlarni tahlil qilish masalalarini yechishda informativ belgilar majmualarini tanlab olish orqali tajriba ma'lumotlarini tahlil qilish usullari va algoritmlari asosida ishlab chiqilgan "Har xil tipli ma'lumotlar fazosida informativ belgilar majmuasini tanlash" nomli dasturiy majmua Toshkent farmasevtika instituti "Farmasevtik ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish"

kafedrasida laboratoriya mashg'ulotlarida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi muvofiqlashtiruvchi Ekspertlar Kengashining 2024-yil 26-apreldagi 01/01-836-sonli ma'lumotnomasi). Natijada tajriba ma'lumotlarini tahlil qilishda ish unumdorligini taxminan 1,2 barobarga oshirgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy nazariy hamda amaliy natijalari 5 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-texnik hamda ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ishlar chop etilgan, ulardan 1 ta monografiya, 6 ta O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan 1 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida nashr qilingan hamda 3 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarini qaydlash guvohnomalari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligidan olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 116 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Turli xildagi ma'lumotlarni tahlil qilish usullarining zamonaviy holati”** deb nomlangan birinchi bobida ma'lumotlarga dastlabki ishlovlar berishda o'quv tanlanmalarni shakllantirish hamda turli xildagi tajriba ma'lumotlariga ishlov berishda ma'lumotlarni tahlil qilish usullari va algoritmlari ko'rib chiqilgan. Mazkur bobning 1.1-paragrafida jahonda keng tarqalgan ma'lumotlarni tahlil qilish usullarining tarixi va zamonaviy holati bayon qilingan. 1.2-paragrafida ma'lumotlarga dastlabki ishlovlar berishda o'quv tanlanmalar shakllantirilgan va timsollarni tanib olish masalalarida eng ko'p tarqalgan usullar ko'rib chiqilgan. Amaliy statistikaning dasturiy ta'minoti turlari va modellari keltirilgan. 1.3-paragrafida belgilarning turlarini o'zgartirishning mavjud usullari bayon etilgan bo'lib, ushbu usullarning afzalliklari va kamchiliklari ko'rsatilgan. “Belgilarning turlarini o'zgartirish” tushunchasi ostida turli xildagi belgilardan bir turga ya'ni miqdoriy, sifat yoki tasnifli ko'rinish shakllariga o'tkazilishi ko'rib chiqilgan.

Mazkur bobning so'nggi paragrafida dissertatsiya ishining maqsadi, vazifalari keltirilib o'tilgan bo'lib, tadqiqot masalasi shakllantirilgan.

Tadqiqot masalasini shakllantirishda p - o'lchovli belgilar fazosidagi $X_i \in A$, $i = \overline{1, m}$; umumiy tanlanmadan foydalangan holda o'quv tanlanmalarni aniqlashtirish talab etiladi. Bunda $X_{k1}, X_{k2}, \dots, X_{kN_k} \in A_k, k = \overline{1, m}$; sinflarni shakllantirish talab etiladi. Bu yerda A_k sinf N_k ta $X_{k1}, X_{k2}, \dots, X_{kN_k}$ obyektlardan tashkil topgan $A = \bigcup_{k=1}^m A_k$ bo'ladi.

Bu klasterlash masalasini yechish uchun obyektlar aro yaqinlik funksiyasi kiritiladi. Agar obyektlarning belgilari nominal bo'lsa, u holda ularning o'xshashligini ko'rsatuvchi kattalik $\rho^j(x_{ki}, x_{kq})$ orqali belgilanib va quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$\rho_{ki}^j(x_{ki}, x_{kq}) = \begin{cases} 1, & \text{agar } (x_{ki}^j - x_{kq}^j) = 0 \\ 0, & \text{aks holda} \end{cases} \quad (1)$$

Agar obyektlar sonli belgilar orqali ifodalangan bo'lsa, u holda ularning o'xshashligini o'lchovchi kattalik $\rho^j(x_{pi}, x_{pq})$ orqali belgilanib, (2) formula asosida hisoblanadi:

$$\rho_{ki}^j(x_{ki}, x_{kq}) = \begin{cases} 1, & \text{agar } |x_{ki}^j - x_{kq}^j| \leq \varepsilon^j \\ 0, & \text{aks holda} \end{cases} \quad (2)$$

bu yerda $k = \overline{1, m}; i \neq q = \overline{1, m_k}; j = \overline{1, p}; \rho_{ki}^j(x_{ki}, x_{kq}) = (\rho_{ki}^1(x_{ki}, x_{kq}), \rho_{ki}^2(x_{ki}, x_{kq}), \dots, \rho_{ki}^p(x_{ki}, x_{kq}))$.

Yuqorida keltirilgan (2) formuladagi j -belgiga mos ε^j —bosag'aviy qiymat har bir sinf obyektlarining belgilari uchun quyidagicha hisoblanadi:

$$\varepsilon^j = \frac{1}{N-1} \sum_{i=1}^{N-1} |x_{ki}^j - x_{ki+1}^j|,$$

bu yerda $j = \overline{1, p}; k = \overline{1, m}; i = \overline{1, N-1}$; ga teng.

Dissertatsiyaning **“Turli xildagi ma'lumotlarni tahlil qilish usullari va algoritmlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida turli xildagi ma'lumotlarni tahlil qilishda nomiqdoriy belgilarga raqamli ishlov berish usullari va algoritmlari ko'rib chiqilgan. Mazkur bobning 2.1-paragrafida belgilarning o'zaro bog'liqliklarini tadqiq etish masalalari o'rganilgan.

$m * p$ o'lchamdagi X matritsani quyidagi ko'rinishida ifodalab olamiz:

$$X = [X_1, X_2, X_3] \quad (3)$$

bu yerda $X_1 - \ell$ ta miqdoriy belgilar $x^{(1)}, x^{(2)}, \dots, x^{(\ell)}$ ga ega bo'lgan qism-matritsa, $X_2 -$ faqat $i = \overline{\ell+1, m}$; indeksli sifatli belgilarga ega va $X_3 -$ esa X dan olingan, faqat $i = \overline{m+1, p}$ indeksli tasnifli belgilarga ega bo'lgan qism-matritsa. Natural sonlar qatori kesmasi $K_g = \{1, 2, \dots, g\}$ tanlab olinadi. Bunda ξ ko'rinishi har bir i - gradatsiyaga K_g dan olingan d_i butun sonli metka qiymatini beradi, u gradatsiya darajasi deb ataladi. U holda ξ ko'rinishi $D \in P^g$ darajalarning o'rinlarini almashtirish bilan beriladi. Bu yerda $D = (d_1, d_2, \dots, d_g)$, $P_g - g$ natural sonlarning o'rinlarini almashtirishlar to'plamidir.

Belgilar turlarini o'zgartirish uchun empirativ shkalalarni tanlash mezoni sifatida $1 - r_{12}^2$ qiymatni minimallashtirish orqali foydalanish taklif etiladi. Bu yerda $r_{12}^2 - x_1$ miqdoriy belgi orasidagi korrelatsiya koeffitsienti va x_2^ξ raqamli ishlov

berilgan miqdoriy bo'lmagan belgi. R_{12} uchun, quyidagi munosabatni olishimiz mumkin:

$$r_{12}^2 = \frac{\bar{a}^T C \bar{a}}{\bar{a}^T T \bar{a}}$$

$$C = \bar{\mu} \lambda_{11}^{-1} \mu^{-T}, \mu^T = [\mu_1^1, \mu_1^2, \dots, \mu_1^g] \text{ ushbu munosabatlarni olamiz:}$$

$$1 - r_{12}^2 = \frac{\bar{a}^T H \bar{a}}{\bar{a}^T T \bar{a}} \quad (4)$$

bu yerda $H = T - C$.

Shunday qilib, o'zaro juftlashgan bog'lanishlarni o'rganishda raqamli belgilarni qidirish mezonini quyidagicha ko'rinishiga ega:

$$\frac{\bar{a}^T H \bar{a}}{\bar{a}^T T \bar{a}} \rightarrow \min \quad (5)$$

bu yerda $\bar{a} \in B^g$.

Optimal butun sonli raqamli belgilarni topish uchun (5) shart bo'yicha masalani yechishga o'tamiz. Bu holda (5) masala quyidagicha ko'rinishga keladi:

$$\frac{\bar{D}^T H \bar{D}}{\bar{D}^T T \bar{D}} \rightarrow \min \quad (6)$$

bu yerda $D \in P^g$.

Faraz qilaylik, $x_{\ell+1}$ tasniflash belgilarining g gradatsiyalari soni oltitadan katta bo'lmaydi, $g \leq 6$. Bunday holda, har bir darajali empirativ shkalaning g butun son darajalarining o'rniga $\bar{D}^T = (d_1, \dots, d_g)$, $d_i \in K_g$ mos keladi. Barcha almashtirishlar soni $g!$ ga teng bo'lib, ko'rib chiqilayotgan jarayon uchun nisbatan kichik bo'lsa, u holda (6) ifodaning optimal qiymati barcha almashtirishlarni to'liq sanab o'tish orqali izlash usuli taklif etiladi. Bunda g ga teng bo'lgan, $x_{\ell+1}$ tasniflash belgisining berilgan gradatsiya sonidan barcha almashtirishlarni olish usulini aniqlaymiz.

Dastlab $k_1 = 1$ deb olamiz. Birinchi navbatda bu qiymatga $k_2 = 2$ ni qo'shib, so'ngra ikkinchisini, natidjida $2!$ hosil qilamiz. Ya'ni $\{2,1\}\{1,2\}$ o'rin almashtiramiz. Uchunchi qadamda $3!$ ni almashtiramiz, g qadamda $g!$ almashtirishlarni hosil qilamiz.

Empirativ tartib shkalasini aniqlashda foydalaniladigan, $g \leq 6$ ning butun son gradatsiya darajalarini optimal almashtirishini topishning hisoblash algoritmlari quyidagi qadamlardan iborat bo'ladi.

Birinchi qadam. Barcha $g!$ aniqlashda yuqorida taklif yetilgan sxema ko'rinishida almashtirish kerak.

Ikkinchi qadam. $\bar{D}_0 = (1, 2, \dots, g)$ gradatsiyalarini dastlabki almashtirishlarini tanlash va $F(\bar{D}_0) = \frac{\bar{D}_0^T H \bar{D}_0}{\bar{D}_0^T T \bar{D}_0}$; $F_{min} = F(\bar{D}_0)$ ni qiymatni hisoblash.

Uchunchi qadam. $\bar{D}_k$, - keyingi almashtirishlarga o'tish. $F(\bar{D}_k)$ qiymatini hisoblash. Agar $F(\bar{D}_k) < F_{min}$, u holda $F_{min} = F(\bar{D}_k)$, $k = \overline{1, g}$;

To'rtinchi qadam. Agar barcha $g!$ almashtirishlar amalga oshirilsa, u holda beshinchi qadamga o'tiladi, aks holda uchunchi qadamga o'tiladi.

Beshinchi qadam. F_{min} ning minimal qiymatiga mos keladigan $\bar{D}_k$ vektori va izlangan empirativ tartibli shkalasi hisoblanadi.

Endi $g > 6$ holatni ko'rib chiqamiz. Bunday holda g ning butun son darajalarini mumkin bo'lgan almashtirishlarning umumiy soni ($g!$) dan juda katta bo'ladi va (6) ifodaga mos keladigan optimal empirativ shkalani olish uchun to'liq qidirish usulidan foydalanish samarasiz bo'ladi.

Shuning uchun darajalarni optimal almashtirishni ketma-ket yaqinlashish usuli yordamida izlash taklif etiladi. Bunday holda dastlabki almashtirishlar ixtiyoriy tarzda amalga oshiriladi va yakuniy natija $\bar{D}_0$ ga bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, turli xil boshlang'ich qiymatlar uchun turli xil (6) ifodaning mahalliy minimal qiymatlari olinadi. Birinchi navbatda $\bar{D}_0$ ni hisoblash usulini aniqlaymiz, buning uchun yordamchi masalani yechamiz.

Faraz qilaylik, (6) ifodada minimal haqiqiy sonlar to'plamida topilishi kerak, ya'ni B^g uchun mumkin bo'lgan yechimlar to'plamini kengaytiramiz va optimal vektorni topish masalasi (6) ko'rinishiga ega bo'ladi.

Umumlashgan (5) ifodasi Releya munosabati deyiladi. Ma'lumki odatdagi Releya munosabati quyidagicha ko'rinishga ega:

$$\frac{(Ax, x)}{(x, x)} \quad (7)$$

haqiqiy tengsizlik

$$v_1 \leq \frac{(Ax, x)}{(x, x)} \leq v_n \text{ nisbati esa}$$

$$v_1 = \min_{x \neq 0} \frac{(Ax, x)}{(x, x)} \quad (8)$$

bu yerda x ixtiyoriy nolga teng bo'lmagan vektor, $v_1, \dots, v_n$ - A matritsasining xos qiymati, v_1 -raqamlarning minimal qiymati.

$\bar{a}$ vektorni markazlashtirish shartini qo'llaymiz, ya'ni:

$$\frac{1}{N} \sum_{i=1}^g a_i n_i = 0$$

Bu holda T matritsa belgilarning o'zaro bog'liqliklarini tahlil qilish masalasi uchun $\frac{n_i}{N}$ ta elementga ega bo'lgan holda diagonal ko'rinishni oladi va shuning uchun degeneratsiya bo'lmagan hisoblanadi. U holda (5) munosabatni (7) ko'rinishga keltirish mumkin, chunki:

$$\frac{\bar{a}^T H \bar{a}}{\bar{a}^T T \bar{a}} = \frac{(H^T \bar{a}, \bar{a})}{(T^T \bar{a}, \bar{a})} = \frac{(T^{T-1/2} H^T T^{T-1/2} \bar{b}, \bar{b})}{(\bar{b}, \bar{b})}$$

bu yerda $\bar{b} = T^{T-1/2} \bar{a}$.

$B = T^{T-1/2} H^T T^{T-1/2}$ kabi belgilaymiz. U holda quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\frac{\bar{a}^T H \bar{a}}{\bar{a}^T T \bar{a}} = \frac{(B \bar{b}, \bar{b})}{(\bar{b}, \bar{b})}$$

Ushbu tenglik uchun (8) munosabatdan foydalangan holda B matritsaning minimal xos soniga mos keluvchi $\bar{b}_0$ xos vektorni topish mumkin. Keyin izlanayotgan vektor quyidagicha tarzda hisoblaniladi:

$$\bar{a} = B^{-1/2} \bar{b}$$

Biroq $B^{-1/2}$ matritsani topish jarayoni anchagina katta hisoblashlarni talab qiladi, shuning uchun yana bitta qo'shimcha cheklanishni kiritamiz:

$$\bar{a}^T T \bar{a} = 1 \quad (9)$$

U holda (5) minimallashtirish (9) shart bilan masalasi quyidagi kvadratik shaklning shartli minimumini qidirishga keltiriladi:

$$\bar{a}^T H \bar{a} \rightarrow \min \quad (10)$$

(10) masalani yechish uchun Lagranj ko'paytiruvchilari usulidan foydalanamiz, unga ko'ra optimal vektor $\bar{a}$ quyidagi Lagranj funksiyasi birinchi hosilasini nolga tenglashtiradi:

$$F(\bar{a}) = \bar{a}^T H \bar{a} - \nu \bar{a}^T T \bar{a}$$

bu yerda ν - kiritilayotgan Lagranj ko'paytiruvchisi.

Quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\frac{\partial F(\bar{a})}{\partial \bar{a}} = 2H\bar{a} - 2\nu T\bar{a} = 0$$

yoki quyidagi chiziqli bir jinsli tenglamalar sistemasini olamiz:

$$H\bar{a} - \nu T\bar{a} = 0 \quad (11)$$

Ushbu tenglamani chapdan $\bar{a}$ ga ko'paytirib va (9) ni hisobga olgan holda quyidagini olamiz:

$$\bar{a}^T H \bar{a} = \nu \quad (12)$$

Ya'ni (5) ning qiymati (9) shart bilan kiritilgan Lagranj ko'paytiruvchisi bilan aniqlanadi. Shuning uchun ν sifatida minimal xos sonni tanlab olib va (11) tenglamalar sistemasini yechgan holda (5) ifodani minimallashtiruvchi $\bar{a}$ vektorni olamiz.

(11) ni chapdan T^{-1} ko'paytirgan holda quyidagini olamiz:

$$T^{-1}H\bar{a} = \nu \bar{a}$$

Ya'ni bu holda izlanayotgan optimal yechim (5) $T^{-1}H$ matritsaning minimal xos son ν ga mos keluvchi xos vektori bilan aniqlanadi. $\bar{a}_0$ orqali (5) ni minimallashtiruvchi topilgan optimal vektorni belgilaymiz.

$\bar{a}_0$ vektori komponentlarini o'sish tartibida joylashtiramiz, ya'ni:

$$a_{i1} \leq a_{i2} \leq \dots a_{ig}$$

bu yerda i_j -indeks, $\bar{a}_0$ vektorning a_{ij} komponentining joylashishini ko'rsatib, $\{1, 2, \dots, g\}$ to'plamidan qiymatlarni oladi.

$\bar{D}_0$ vektorining komponentlarini quyidagi sxema bo'yicha butun son qiymatlarini belgilaymiz:

$$d_{i1} = a_{i1} = 1; d_{i2} = a_{i2} = 2; \dots d_{ig} = a_{ig} = g$$

Natijada biz quyidagicha vektorni hosil qilamiz:

$$\bar{D}_0 = (d_1, \dots, d_g)$$

Buni darajalarning dastlabki almashinuvi sifatida ko'rib chiqamiz.

Ketma-ket yaqinlashish usuli bilan empirativ tartibli shkalani aniqlaymiz, ularning mohiyati quyidagicha tavsiflanadi:

(6) sur'at va mahrajini mos ravishda M_1 va M_2 bilan belgilaymiz. k va ℓ -chi gradatsiyalarini ko'chirishda sur'at va maxrajning o'sishi quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi:

$$\Delta M_1 = \bar{c} \bar{d}, \quad \bar{c} = (c_1, \dots, c_g)$$

bu yerda

$$c_i = \begin{cases} 2(d_k - d_\ell)(h_{i\ell} - h_{ik}), & i \neq k, \ell; \\ (d_k - d_\ell)(h_{\ell\ell} - h_{kk}), & i = k, \ell; \end{cases}$$

$$\Delta M_2 = \bar{f}\bar{d}, \bar{f} = (f_1, \dots, f_g)$$

bu yerda

$$f_i = \begin{cases} 2(d_k - d_\ell)(t_{i\ell} - t_{ik}), & i \neq k, \ell; \\ (d_k - d_\ell)(t_{\ell\ell} - t_{kk}), & i = k, \ell; \end{cases} \quad (13)$$

$$\frac{1 + \Delta M_1/M_1}{1 + \Delta M_2/M_2} < 1$$

shartga ko'ra k va ℓ -gradatsiyalar darajalarini transpozitsiyasi (6) qiymatini kamaytiradi. Endi $g > 6$ holati uchun (6) ifodani minimallashtiradigan butun sonli gradatsiya darajalarining optimal almashtirishni qidirish uchun hisoblash algoritmlarini tavsiflaymiz:

Birinchi qadam. Yuqorida tavsiflangan usul bo'yicha $\bar{D}_0$ gradatsiya darajalarining dastlabki almashtirishlarni aniqlaymiz.

Ikkinchi qadam. Avvalgi k va ℓ gradatsiyasidagi interperatsiya juftliklari afzalini tanlash.

Uchinchi qadam. d_k va d_ℓ darajalarining transpozitsiyasida ΔM_1 va ΔM_2 larni aniqlash (13) ifoda qiymatini hisoblash.

To'rtinchi qadam. (13) ifodasida tengsizlik bajarilsa, $\bar{D}_0$ da yangi almashirishlarni hosil qilamiz, aks holda beshinchi qadamga o'tamiz.

Beshinchi qadam. Agar hosil bo'lgan (6) ifodadagi tartibning har qanday juft darajalarining transpozitsiyasi pasayishga olib kelmasa, u holda chiqish amalga oshiriladi. Aks holda ikkinchi qadamga o'tiladi.

Shunday qilib, yuqorida tavsiflangan algoritm $x^{\ell+1}$ belgisi uchun (6) ifodasini minimallashtirgan holda, $\bar{D}$ darajalarining optimal almashtirishni topishga imkon beradi. Agar bir nechta miqdoriy bo'lmagan belgilar mavjud bo'lsa, u holda $x^{\ell+2}, \dots, x^p$ belgilar bilan amallar bajariladi.

2.2- paragrafda timsollarni tanib olish masalalarida belgilar turlariga ishlovlar berish usul va algoritmlari, ularning turlari va ta'riflari keltirilgan. Timsollarni tanib olish masalasi uchun empirativ shkalalarni dispersiya nisbati minimallashtiriladigan sonli belgilar bilan berish ko'zda tutiladi.

2.3- paragrafda belgilar turlarini almashtirish algoritmlari asosida nomiqdoriy belgilar uchun ko'p o'zgaruvchili chiziqli regressiya tahlili masalalarni yechish usullari ko'rib chiqilgan. Regressiya tahlili masalasi uchun empirativ shkalani qidirish mezoni quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\frac{\bar{a}^T s \bar{a}}{\bar{a}^T s' \bar{a}} \rightarrow \min \quad (14)$$

Faraz qilaylik, bog'liq bo'lgan belgi sifatida miqdoriy bo'lmagan $x_{\ell+1}^\xi$ belgisi qaralyapti. U holda $x_{\ell+1}$ uchun empirativ shkalani beruvchi sonli belgilar $1 - r_{\ell+1.1\dots\ell}^2$ kattalikni minimallashtirishi kerak. Ko'rsatish mumkinki, bu holda nomiqdoriy $x_{\ell+1}$ belgi uchun empirativ o'lchovni qidirish mezoni quyidagi shaklga ega bo'ladi:

$$\frac{\bar{a}^T s \bar{a}}{\bar{a}^T T \bar{a}} \quad (15)$$

bu yerda $T = [t_{ij}], i, j = \overline{1, g}$;

$$t_{ij} = \begin{cases} -\frac{n_i n_j}{N}, i \neq j \\ \frac{n_i}{N^2}(N - n_i), i = j \end{cases}$$

bu yerda $\bar{a} \in B^g$

Butun sonli belgilarni qidirishda (14) va (15) mezonlar quyidagi shaklda bo‘ladi:

$$\frac{\bar{D}^T S \bar{D}}{\bar{D}^T S' \bar{D}} \rightarrow \min \text{ va } \frac{\bar{D}^T S \bar{D}}{\bar{D}^T T \bar{D}} \rightarrow \min \quad (16)$$

bu yerda $\bar{D} \in P^g$.

(16) ifodadagi mezonlarni optimallashtirish uchun ko‘rsatilgan yondashuv ham qo‘llaniladi.

Dissertatsiyaning “**Ma’lumotlarni tahlil qilish masalalarida informativ belgilarni tanlab olish**” deb nomlangan uchinchi bobida timsollarni tanib olish masalalarida informativ belgilar fazosini tanlash usullari va algoritmlarini ishlab chiqish taklif qilinadi.

Ta’rif 1. $R^p = \{x = (x^{(1)}, x^{(2)}, \dots, x^{(p)})\}$ to‘plamni qisqartiramiz.

λ - orqali maydonni belgilab olamiz:

$$R^p|_{\lambda} = \{x|_{\lambda} = (\lambda^1 x^{(1)}, \dots, \lambda^p x^{(p)})\}, \lambda^k \in \{0,1\}$$

Ikki obyektlar $x, y \in R^p$ orasidagi qisqartirilgan oraliqni, $R^p|_{\lambda}$ to‘plamdagi y ’ni $x|_{\lambda}$ va $y|_{\lambda}$ orasidagi Yevklid oralig‘ini tushunamiz:

$$\|x - y\|_{\lambda} = \sqrt{\sum_{k=1}^p (x^{(k)} - y^{(k)})^2 \lambda^k} \quad (17)$$

belgilab olamiz:

$$S_q|_{\lambda} = \sqrt{\frac{1}{m_q} \sum_{i=1}^{m_q} (\|\bar{x}_q - x_{qi}\|_{\lambda})^2} \quad (18)$$

bu yerda $\bar{x}_q = \frac{1}{m_q} \sum_{i=1}^{m_q} x_{qi}$.

$S_q|_{\lambda}$ - λ bilan kesishadigan X_q sinfidagi obyektlarning tarqalishi o‘rtacha kvadrati.

λ dagi kesishishga nisbatan X_q, X_t sinflari orasidagi yaqinlik o‘lchovlarini aniqlaymiz:

$$R_{qt}|_{\lambda} = \sqrt{\frac{1}{m_q m_t} \sum_{i=1}^{m_q} \|\bar{x}_t - x_{qi}\|_{\lambda}^2 \sum_{i=1}^{m_q} \|\bar{x}_q - x_{ti}\|_{\lambda}^2} \quad (19)$$

λ dagi kesishishga nisbatan X_q, X_t sinflari orasidagi ajratish o‘lchovi sifatida quyidagi qiymatni tushunamiz:

$$L_{qt}|_{\lambda} = \frac{R_{qt}|_{\lambda}}{S_q|_{\lambda} S_t|_{\lambda}} \quad (20)$$

λ - informativlik quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$I(\lambda) = \min_{q, t, q \neq t} L_{qt}|_{\lambda} \quad (21)$$

Usulning maqsadi λ vektorining ℓ informativligini topishdan iborat bo‘lib, bunda $I(\lambda)$ ning informativligi maksimal darajaga yetadi.

Barcha qiymatlarni qidirish usuli orqali $I(\lambda)$ fuksiyasini maksimumini topamiz:

$\lambda = (\lambda^1, \lambda^2, \dots, \lambda^k), \lambda^k \in \{0,1\}$ buning uchun,

$$\sum_{k=1}^p \lambda^k = \ell$$

belgilab olamiz:

$$\bar{x}_q^{(k)} = \frac{1}{m_q} \sum_{i=1}^{m_q} x_{qi}^{(k)}, q = \overline{1, m}; \quad (22)$$

$$S_q^k = \sqrt{\frac{1}{m_q} \sum_{i=1}^{m_q} (\bar{x}_q^{(k)} - x_{qi}^{(k)})^2} \quad (23)$$

$$R_{qt}^k = \sqrt{\frac{1}{m_q m_t} \sum_{i=1}^{m_q} (\bar{x}_t^{(k)} - x_{qi}^{(k)})^2 \sum_{i=1}^{m_q} (\bar{x}_q^{(k)} - x_{ti}^{(k)})^2} \quad (24)$$

(17) – (24) lardan shunday xulosa kelib chiqadi:

$$S_q \ell_\lambda = \sum_{k=1}^p \lambda^k S_q^k \quad (25)$$

$$R_{qt} \ell_\lambda = \sum_{k=1}^p \lambda^k R_{qt}^k \quad (26)$$

$I(\lambda)$ funksiyani maksimallashtirish C_p^ℓ varianti orqali qidirishni talab etadi.

Tasdiq 1. Har qanday $M, 0 \leq M \leq 2^p$ butun son uchun $\lambda \in \Lambda$ shunday ifoda mavjud, bunda $(\lambda) = M$.

$\Lambda^\ell - \Lambda$ ning qism-to‘plami bo‘lgani uchun, bu Λ^ℓ ham kiritilgan tartibga nisbatan qat’iy tartiblangan hisoblanadi.

Tasdiq 2. $\lambda_1(1, \dots, 1, 0, \dots, 0)$, berilgan bo‘lsin, u holda Q qoidasini aniqlaymiz.

$$\lambda = (*, *, \dots, *, 1, 0, 0, \dots, 0, 1, \dots, 1),$$

$$Q(\lambda) = (*, *, \dots, *, 0, 1, 1, \dots, 1, 0, \dots, 0)$$

$$\lambda_2 = Q(\lambda_1), \lambda_3 = Q(\lambda_2) \text{ bo‘lsin, holda } \{\lambda_i\} = \Lambda^\ell$$

Λ^ℓ to‘plamini maksimal va minimal elementlarini $\lambda_{\max}$ i $\lambda_{\min}$ orqali, ya’ni kiritilgan tartib ma’nosida belgilab olamiz:

$$1. \lambda_{\max} \in \Lambda^\ell, \lambda_{\min} \in \Lambda^\ell.$$

$$2. \text{Ixtiyoriy } \lambda \in \Lambda^\ell / \{\lambda_{\max}\}, \lambda_{\max} > \lambda$$

